2026-yil xorijliklar huquqlari bo'yicha liderlarni saralash e'loni

□ **(Arizalarni qabul qilish muddati)** 2026-yil 16-iyun (seshanba) soat 09:00 dan 2026-yil 30-iyun (seshanba) soat 18:00 gacha.

□ **(Tanlov kvotasi)** Jami 50 nafar nomzod saralanadi. Har bir Mehnat va bandlik vazirligi hududiy boshqarmasi (vakillik boshqarmasi) bo'yicha 10 nafargacha.

*Xorijliklar bilan ishlovchi tegishli tashkilotlar (Xorijiy ishchi kuchi maslahat markazi, Xorijiy mehnatkashlarni qo'llab-quvvatlash markazi, Xorijiy fuqarolar markazi va boshqalar) tomonidan tavsiya etilgan nomzodlarga ustuvorlik beriladi.

□ **(Ariza topshirish talablari)** Hozirda Koreya Respublikasida qonuniy ravishda yashab turgan chet el fuqarolari orasidan, Koreyadagi korxona yoki tashkilotlarda jami (umumiy hisobda) kamida 2 yil ishlagan tajribaga ega bo'lishi; O'z ona tilida hamda koreys tilida erkin muloqot qila olishi.

*Nomzod e'lon qilingan sana holatiga ko'ra tanlovda ishtirok etishga to'sqinlik qiluvchi holatlarga ega bo'lmasligi hamda uning Koreyadagi yashash maqomi (vizasi) «Xorijliklar huquqlari bo'yicha lider» sifatida faoliyat yuritishiga cheklov qo'ymasligi lozim.

○ **(Imtiyozli saralash shartlari)** Quyidagi talablardan biriga yoki bir nechtasiga javob beradigan nomzodlar imtiyozli tartibda saralanishi mumkin:

- Koreya Respublikasi Mehnat va bandlik vazirligi (HRD Korea, Xorijiy ishchi kuchi maslahat markazi, Xorijiy mehnatkashlarni qo'llab-quvvatlash markazi), mahalliy hokimiyatlar (Xorijiy ishchi kuchini qo'llab-quvvatlash markazi, Xorijiy fuqarolar markazi) hamda nodavlat tashkilotlari tomonidan boshqariladigan xorijliklar bilan bog'liq muassasalar tomonidan tavsiya etilgan shaxslar.

* Mazkur toifaga kiruvchi nomzodlar tavsiyanoma taqdim etishlari lozim.

- Chet elliklar bilan bog'liq tashkilotlar, muassasalar yoki chet elliklarni qo'llab-quvvatlash tashkilotlarida faoliyat yuritgan tajribaga ega shaxslar.

- Mamlakat yoki hududlar bo'yicha jamoalar, xorijliklarni qo'llab-quvvatlovchi markazlar va tashkilotlarda faoliyat yuritish tajribasiga ega bo'lgan shaxslar.

- TOPIK (Koreys tili bilim darajasi imtihoni) 4-darajayoki undan yuqori natijaga ega bo'lganlar, Ijtimoiy integratsiya dasturining (KIIP) 4-bosqichiyoki undan yuqori bosqichini tamomlaganlar yoxud shunga teng darajadagi bilim va malakaga ega bo'lganlar.

* TOPIK 4-daraja — kundalik ish faoliyatida zarur bo'lgan murakkab o'qish, tinglash, yozish va gapirish ko'nikmalariga ega bo'lib, yangiliklar va gazeta maqolalaridagi oddiy mazmundagi materiallarni tushuna olish darajasidir.

□ **(Faoliyat mazmuni)** Xorijliklarning huquq va manfaatlari buzilishining oldini olish hamda inson huquqlarini himoya qilish faoliyati

○ **(Holatlarni aniqlash va xabar berish)** Mahalliy jamiyatdagi xorijliklarga nisbatan adolatsiz munosabat, kamsitish yoki boshqa huquqbuzarlik holatlarini aniqlab, ular haqida hududiy Mehnat va bandlik boshqarmalariga ma'lumot taqdim etish.

* Inson huquqlari liderlari shartli ravishda "Holatlar kundaligi"ni yuritib va topshirib boradilar. (Zo'ravonlik va boshqa og'ir inson huquqlari buzilishi holatlari yuz berganda, bu haqda zudlik bilan hududiy Mehnat va bandlik boshqarmasiga xabar berish

lozim.)

○ **(Muhokama yig'ilishlarida ishtirok etish)** Muntazam ravishda o'tkaziladigan uchrashuvlarda (Choraklik asosda tashkil etiladi, zarurat tug'ilganda qo'shimcha ravishda ham) qatnashib, xorijliklarning huquqlari buzilishi bilan bog'liq holatlar va takliflarni tegishli organlarga yetkazish.

○ **(Inson huquqlari mentori)** Xorijiy mehnatkashlarga o'z huquqlarini himoya qilish tartiblari va tegishli tashkilotlar haqida ma'lumot berish, og'zaki va yozma tarjima xizmatlari bilan ko'maklashish hamda xorijliklarning huquqlari buzilishi masalalari bo'yicha muloqot ko'prigi vazifasini bajarish.

○ **(Targ'ibot va axborot tarqatish)** Xorijiy mehnatkashlarning mehnat huquqlari va manfaatlarini yaxshilashga qaratilgan asosiy davlat siyosatlari, axborot materiallari va turli kampaniyalar haqida ijtimoiy tarmoqlar (SNS) orqali ma'lumot tarqatish va ulashish.

○ **(Tarjima va tahrir)** Xorijliklarning inson huquqlarini himoya qilishga oid o'quv materiallari, yo'riqnomalar va boshqa hujjatlarni tarjima qilish hamda ularni tekshirish (ekspertiza qilish) ishlarida ishtirok etish.

□ **(Faoliyat muddati)** Tanlovdan o'tgan kundan boshlab 1 yil(2027-yil iyun oyi oxirida yakunlanishi rejalashtirilgan).

□ **(Taqdim etiladigan hujjatlar)** ① Ariza shakli (shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish, foydalanish va taqdim etishga rozilik arizasi bilan birga), ② Tavsiyanoma, ③ Muvofiqlikni tasdiqlovchi hujjat, ④ Tegishli malaka, tajriba va faoliyatni tasdiqlovchi hujjatlar.

* Hujjatlar hududiy Mehnat va bandlik boshqarmasining (Xorijiy mehnat resurslari bo'limi) ofisiga shaxsan olib borish, pochta orqali yoki elektron pochta orqali yuborish mumkin.

□ **(Faoliyat uchun beriladigan imtiyozlar)** Xorijiy fuqarolar huquqlari bo'yicha lider guvohnomasini topshirish, yig'ilishlarda ishtirok etganlik uchun haq (majlis puli) hamda boshqa faoliyat xarajatlarini qoplash, faoliyati namunali deb topilgan ishtirokchilarni mukofotlash kabi rag'batlantirish choralari taqdim etiladi.

□ **(Saralash jarayoni)** Hujjatlarni ko'rib chiqish; Suhbat (2026-yil iyul oyi boshida)

→ Yakuniy natijalarni e'lon qilish (2026-yil iyul oyi davomida)

* Hujjatlar saralashidan o'tgan nomzodlarga suhbat sanasi alohida xabar qilinadi. Yakuniy tanlovdan o'tganlarga ham natija shaxsan ma'lum qilinadi.

□ **(Murojaat uchun)** Mehnat va bandlik vazirligining yagona aloqa markazi (☎1350) yoki hududiy Mehnat va bandlik boshqarmasining Xorijiy ishchi kuchi bo'limi (batafsil ma'lumot uchun tanlov e'loniga qarang).